



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
adabiyot fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar uchun
IV chorak adabiyor fanidan

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan adabiyot fanidan IV chorak taqvimiy
mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	XX asr o‘zbek adabiyoti (1910–1930). Umumlashtiruvchi kirish darsi	1		
2.	XX asr o‘zbek adabiyoti (1910–1930). Umumlashtiruvchi kirish darsi. Loyiha	1		
3.	Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Muallif hayoti va ijodi. Asarning yozilish tarixi	1		
4.	Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Asar matni bilan ishlash	1		
5.	Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Asar matni bilan ishlash	1		
6.	Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Muhokama	1		
7.	4-BSB. Asar tahlili (50 ball)	1		
8.	XX asrning birinchi yarmi jahon adabiyoti (1900– 1950). Umumlashtiruvchi kirish darsi	1		
9.	Erix Mariya Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani. Muallif hayoti va ijodi. Asarning yozilish tarixi	1		
10.	Erix Mariya Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani. Asar matni bilan ishlash	1		
11.	Erix Mariya Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani. Asar matni bilan ishlash	1		
12.	Erix Mariya Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”. Muhokama	1		
13.	Erix Mariya Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”. Loyiha	1		
14.	4-CHSB (40 ball)	1		
15.	Nazorat ishi va uning tahlili	1		
16.	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: XX asr o‘zbek adabiyoti (1910–1930). Umumlashtiruvchi kirish darsi
Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o‘quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llash;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

Milliy va umummadaniy kompetentsiyalar:

badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish;

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

XX asr boshlarida Turkistonda kechgan voqealar sabab mahalliy xalq hayoti uchun xos bo‘lgan ikki muhim jihatni alohida ko‘rsatish lozim: - birinchisir .Rossiya mustamlaka siyosati asosiga qurilgan bosqinchilik, adolatsizlik, tengsizlik zulmining kuchayishi tufayli paydo bo‘lgan parokandalik; Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali 1-soni

- ikkinchisi - xalq orasidan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning yetishib chiqishi hamda zulm va g‘aflatdagi xalqning ular yaratgan asarlar ta’sirida uyg‘onishi, millat tafakkurining yangi bosqichda shakllanishi. Turkistondagi jadidchilik harakati XIX asr oxiri -XX asr boshlarida iqtisodiy, siyosiy va ma’rifiy tanazzulga javoban ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida vujudga kelgan edi. 1917-yil fevral inqilobigacha bo‘lgan davrda ma’rifiy maqsadlar bilan boshlangan harakat asta-sekin o‘z rejalarini kengaytirib, mustaqil o‘zbek davlatini barpo etishni maqsad qildi. “Yangi g‘oyalar”, “yangi odam” va “yangi avlod” tushunchalarini o‘z ichiga olgan jadidchilik harakati va jaded adabiyoti namoyandalari Turkiston jamiyati hayotini erkinlik g‘oyalari asosida isloh qilishni eng muhim burchlaridan biri deb hisobladilar. Jadid adabiyoti nomi bilan tarixda qolgan, mavzu mundariyasi, g‘oyaviy-badiiy mazmuni, badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar XX asr milliy so‘z san’ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr adabiyoti xalqni ma’rifatli qilish, tengsizlik va adolatsizlik hukmron tuzumdan xalos bo‘lib, mustaqillikni qo‘lga kiritish, o‘zligini qadim turkiy xalqlar taqdiridan ajratmagan holda anglash kabi buyuk g‘oyalar asosiga qurilgan edi. Jadid adabiyoti mavzu-mundarijasida dastlab ma’rifat g‘oyalari yetakchilik qilgan bo‘lsa, keyinchalik bu mavzular o‘rnini mustamlakachilikka qarshi kurash, ozodlik g‘oyalari egalladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadiyor” kabi qator asarlarida o‘lkadagi savodsizlik, ma’rifatga loqaydlikning mudhish oqibatlarini haqida so‘z borsa, “Hind ixtilolchilari”, “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlarida erk va ozodlik g‘oyalari anchayin keskin va oshkora tarzda badiiy talqin etilganini ko‘rish mumkin.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

“Yangi g‘oyalar”, “yangi odam” va “yangi avlod” tushunchalari, sizningcha, nimani anglatadi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: Nima uchun jadidlar islohotni ma’rifatdan boshlamoqchi bo‘ldilar? Ma’rifat va ozodlik tushunchalari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: XX asr o'zbek adabiyoti (1910–1930). Umumlashtiruvchi kirish darsi
Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o'quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;

Milliy va umummadaniy kompetentsiyalar:

badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish;

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Jadidlar o'zbek adabiyotiga yangi poetik shakllarni, yangi adabiy janrlarni ham olib kirdilar. O'zbek adabiyotida o'sha paytgacha mavjud bo'lmagan hikoya, drama, roman janrining dastlabki namunalari ham jadidlar tomonidan yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abduhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi jadid adabiyoti namoyandalari zamonasidagi voqealarga munosabatlarini, siyosiy va ijtimoiy mustaqillikni qo'lga kiritish uchun olib borilayotgan islohotlarni o'z asarlarida ochiqdan

ochiq aks ettira olmas edilar. Chunki ularning asarlari o'sha davrning hukmron mafkurasiga xizmat qilgan tanqidchilar tomonidan muntazam va jiddiy nazorat qilinardi. Jadidlar uchun ramziy obrazlar orqali ham ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish oson kechmagan. Shu bois ular istiqlool haqidagi g'oyalarini imkon qadar asarning mazmuniga, mavzu-mundarijasiga ehtiyotkorlik bilan singdirishga harakat qilganlar. Masalan, Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rini ozodlikni ramziy obrazlar vositasida tarannum etuvchi asarlarning go'zal namunasi sifatida baholash mumkin:

Go'zal yulduz, Yerimizning eng qadrlig'ani,
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg'a tushibsan?
Bizning yerda bo'lib turg'an tubanliklar, xo'rliklar,
So'y la, yulduz, sening dag'i quchog'ingda bo'I nrm I?

Fitrat, "Mirrix yulduziga" she'ridan

XX asrning 1910-1930-yillarida jadidlar, millat fidoyilari sho'rolar imperiyasining mutelikni shakllantirish siyosatiga qarshi chiqib, ham badiiy, ham g'oyaviy jihatdan mukammal asarlar yaratdilar. Mahalliy xalqning asriy orzulari hamda jamiyat mafkuraviy-siyosiy talablari o'rtasidagi keskin nomutanosiblik xalq ongini uyg'otibgina qolmay, har xil kolamdagi milliy ozodlik harakatlarini ham keltirib chiqardi. Ushbu milliy harakat xalqimiz o'z taqdirini belgilashida muhim ahamiyat kasb etdi.

Kichik guruhlarda ishlang. XX asr boshlari jadid adabiyotining quyida keltirilgan namoyandalaridan birini tanlang. Kutubxona va internet manbalari asosida tanlangan adib haqida taqdimot tayyorlang. Taqdimotda quyidagi ma'lumotlar bolishiga e'tibor bering:

- muallifning hayoti va faoliyati;
- uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissi;
- asarlarida ilgari surgan asosiy g'oyalari va bu g'oyalarning bugungi kun uchun ahamiyati;
- muallifning qarashlarini aks ettiradigan muhim iqtibos.



Mahmudxo'ja Behbudiy



Abdulla Avloniy



Is'hoqxon Ibrat

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Ozodlik tarannumida Fitrat nima uchun aynan Mirrix (Mars) yulduziga murojaat qilyapti? Mirrix yulduzi nimaning ramzi? Siz avval qigan jadid adabiyoti namunalarida mualliflar murojaat qilgan yana qanday ramziy-majoziy obrazlarni eslaysiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Nima uchun jadidlar islohotni ma'rifatdan boshlamoqchi bo'ldilar? Ma'rifat va ozodlik tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik bor deb o'ylaysiz?

O'IBDO':

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

35 listdan iborat adabiyot fanidan 10-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar